

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH**  
**VAZIRLIGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI HUDUDIY**  
**FILIALLARIDA MAVJUD BO'SH ISH O'RINLARIGA TANLOV E'LON**  
**QILADI**

**UMUMIY TALABLAR**

1. Iqtisodiyot, moliya, soliq, shuningdek bank ishi yo'nalishlarida oliy ma'lumotga ega bo'lishi (xorijiy va xalqaro oliy o'quv yurtlarida tahsil olgan nomzodlarga afzallik beriladi).

2. O'zbek tilini mukammal, rus va ingliz tillarini yuqori darajada bilgan (bo'sh ish o'rni xizmat vazifalaridan kelib chiqadi). IELTS sertifikatiga ega bo'lgan (kamida 6 ball) nomzodlar ijobiy baholanadi.

3. Kompyuter savodxonligi, jumladan Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarini mukammal bilishi;

4. Halollik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashish.

5. Professional etiket, atrofdagilarga, shuningdek hamkasblarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, jamoa bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi;

6. Muomala madaniyati, o'z fikri va mulohazalarini ifodalay olishi, shuningdek, muzokara olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;

7. Muammolar yechimi bo'yicha tezkor fikrlash va o'z takliflarini taqdim qila olishi;

8. Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlardan habardor bo'lishi va ular bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mohiyatini chuqur anglay olishi.

**TANLOVDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI VA TARTIBI**

**1-bosqich:** Yuqoridagi talablarga javob beradigan nomzod [sh.isakulov@rgsbm.uz](mailto:sh.isakulov@rgsbm.uz) elektron manziliga o'zbek va ingliz tillaridagi ma'lumotnomasini (Ilovaga muvofiq word shaklida) hamda nima uchun aynan shu lavozimda ishlash istagi borligi to'g'risida inshoni (esse) o'zi mukammal bilgan xorijiy (ingliz, nemis, frantsuz va hokazo) va o'zbek tillarida (kamida ikki varaqda Times New Roman 13-shriftida) yozib joriy yilning **01** dekabrda **20 dekabr**ga qadar yuborishi kerak.

**Bunda, inshoni (esse) xorijiy tilda yozish faqat xorijiy tillarni mukammal biladigan nomzodlardan so'raladi.**

**2-bosqich:** **10** (o'n) ish kuni ichida ishchi guruhi tomonidan nomzodlarning ma'lumotnomalari va insholar o'rganib chiqiladi. Qo'yilgan talablarga javob bergan va **keyingi bosqichga o'tgan nomzodlar bilan onlayn suhbat o'tkazish kuni** to'g'risida vazirlikning [www. mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) rasmiy veb saytida e'lon beriladi.

**3-bosqich:** Onlayn suhbat o'tkazilgan kundan boshlab **20** (yigirma) **ish kuni ichida** tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar to'g'risida rasmiy veb-sayt orqali ma'lumot beriladi.

**DIQQAT!!!**

**QUYIDAGI HOLLARDA NOMZODLARNING ANKETALARI KO'RIB CHIQILMAYDI:**

- **NOMZODLAR ILOVAGA MUVOFIQ MA'LUMOTNOMA BILAN INSHO (ESSE)NI TAQDIM ETMAGAN HOLLARDA;**

- **INSHOLARIDA (ESSE) AYNAN QAYSI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI, HUDUDIY FILIAL, QAYSI BO'LIM VA LAVOZIMDA ISHLASH UCHUN TANLOVDA ISHTIROK ETISHLARI KO'RSATILMAGAN TAQDIRDA;**

- **BOG'LANISH UCHUN TELEFON RAQAMI HAMDA ELEKTRON MANZILLARI ANIQ KO'RSATILMAGANDA.**

- **ANKETALAR BELGILANGAN MUDDATDAN OLDIN YOKI KEYIN YUBORILGANDA.**

Ishchi guruhi tomonidan tanlov va tanlov natijalari haqidagi barcha ma'lumotlarni faqat vazirlikni [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) rasmiy veb-sayti orqali nomzodlarga yetkaziladi.

*Ishchi guruhi bilan bog'lanish uchun (+99871)239-03-14, (+99890) 934-30-60 telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin.*

## MA'LUMOTNOMA (14 shrift)

3x4 rangli fotosurat

**Botir Bahodirovich Eshmatov** (14 shrift)

2012 yil 20 fevraldan

**Sud departamenti Sirdaryo viloyat hududiy boshqarmasi**

**sud qarorlarini ijro etish bo'limining yetakchi inspektori** (11 shrift)

**Tug'ilgan yili:**

20.08.1985(11 shrift)

**Tug'ilgan joyi:**

Sirdaryo viloyati  
Guliston shahri  
(11 shrift)

**Millati:**

o'zbek(11 shrift)

**Partiyaligi:**

yo'q (11 shrift)

**Ma'lumoti:**

oliy(11 shrift)

**Tamomlagan:**

2006 y. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
(bakalavr) (11 shrift)

**Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi:**

(11 shrift)

iqtisodchi

(11 shrift)

**Ilmiy darajasi:**

yo'q(11 shrift)

**Ilmiy unvoni:**

yo'q  
(11 shrift)

**Qaysi chet tillarini biladi (to'liq ko'rsatilishi lozim):**

rus, ingliz tillarini(11 shrift)

**Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganmi (qanaqa):**

yo'q(11 shrift)

**Xalq deputatlari respublika, viloyat, shahar va tuman Kengashi deputatimi  
yoki boshqa saylanadigan organlarning a'zosimi (to'liq ko'rsatilishi lozim):**

yo'q(11 shrift)

## MEHNAT FAOLIYATI(14 shrift)

2002-2006 yy. - Samarqand Davlat universiteti talabasi(11 shrift)

2006-2008 yy. - Sirdaryo viloyati Guliston tuman sud ijrochilari bo'linmasining sud ijrochisi (11 shrift)

2008-2010 yy. - Sirdaryo viloyati Boyovut tuman sud ijrochilari bo'limining katta sud ijrochisi (11 shrift)

2010-2012 yy. - Sud departamenti Sirdaryo viloyat hududiy boshqarmasi sud qarorlarini ijro etish bo'limining inspektori(11 shrift)

2012 y.-h.v. - Sud departamenti Sirdaryo viloyat hududiy boshqarmasi sud qarorlarini ijro etish bo'limining yetakchi inspektori(11 shrift)